TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INVESTITSION FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Norqulova Muxlisa Kamoliddin qizi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22982723

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati korxonalarida investitsion faoliyatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda investitsiyalarni jalb etish, ularni ustuvor yo‘nalishlarga taqsimlash, investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash va investitsiyadan keyingi monitoring tizimini takomillashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida investitsiya hajmining o‘sishi, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida korxonalar investitsion faoliyatini boshqarishga moliyaviy, institutsional, texnologik, risk-menejment va raqamli boshqaruv vositalarini integratsiyalashga asoslangan takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsion faoliyat, investitsion boshqaruv, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, to‘qimachilik sanoati, investitsion loyiha, investitsion risk, investitsion samaradorlik, raqamlashtirish, eksport, innovatsiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов управления инвестиционной деятельностью на предприятиях текстильной промышленности Узбекистана. Исследование охватывает теоретические и практические аспекты привлечения инвестиций, их распределения по приоритетным направлениям, оценки экономической эффективности инвестиционных проектов и совершенствования системы пост-инвестиционного мониторинга. Анализируются процессы увеличения объемов инвестиций, модернизации производственных мощностей, производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью и повышения экспортного потенциала в текстильной промышленности Узбекистана. В результате исследования предлагается усовершенствованный организационно-экономический механизм управления инвестиционной деятельностью предприятий, основанный на интеграции финансовых, институциональных, технологических, риск-менеджментных и цифровых инструментов управления.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная деятельность, управление инвестициями, организационно-экономический механизм, текстильная промышленность, инвестиционный проект, инвестиционный риск, эффективность инвестиций, цифровизация, экспорт, инновации.

Abstract. This article examines issues related to improving the organizational-economic mechanisms for managing investment activities within enterprises of Uzbekistan’s textile industry. The study highlights theoretical and practical aspects of attracting investments,

allocating them to priority areas, evaluating the economic efficiency of investment projects, and enhancing post-investment monitoring systems. It analyzes processes such as the growth of investment volumes, the modernization of production capacities, the manufacturing of high-value-added finished products, and the expansion of export potential in the country's textile sector. Based on the research findings, an improved organizational-economic mechanism is proposed for managing enterprise investment activities; this mechanism integrates financial, institutional, technological, risk management, and digital management tools.

Key words: investment, investment activity, investment management, organizational-economic mechanism, textile industry, investment project, investment risk, investment efficiency, digitalization, export, innovation.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta’minlashda investitsion faollik muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish investitsiyalarni samarali boshqarishni talab qiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoati strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatda paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash, ip-kalavadan tayyor mato, trikotaj va tayyor kiyim-kechak mahsulotlarigacha bo‘lgan qiymat zanjirini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Investitsiyalarni jalb qilish esa mazkur jarayonning muhim moliyaviy asosini tashkil etadi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ishlab chiqarish sanoati bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2021-yilda 52,4 trln so‘mni, 2022-yilda 67,8 trln so‘mni, 2023-yilda 95,8 trln so‘mni va 2024-yilda 137,1 trln so‘mni tashkil etgan. 2024-yilda ushbu investitsiyalarning 16,3 foizi to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish hissasiga to‘g‘ri kelgan.

To‘qimachilik sohasining investitsion salohiyatini tavsiflovchi yana bir muhim ko‘rsatkich sifatida so‘nggi yillarda tarmoqqa milliardlab AQSh dollari miqdorida investitsiyalar kiritilgani qayd etiladi. Bu esa ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi korxonalarni tashkil etish, eksport geografiyasini kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan to‘qimachilik korxonalari investitsion faoliyatini faqat investitsiya mablag‘larini jalb qilish nuqtayi nazaridan emas, balki ularni tanlash, baholash, taqsimlash, amalga oshirish, monitoring qilish va natijalarini baholashning yaxlit boshqaruv tizimi sifatida tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Investitsiyalarni boshqarish masalalari iqtisodiy nazariyada keng o‘rganilgan bo‘lib, investitsiya tushunchasi kapitalni kelajakda daromad yoki boshqa iqtisodiy natija olish maqsadida muayyan aktivlarga yo‘naltirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. J.M. Keynes investitsiyalarni iqtisodiy faollik va yalpi talabning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, investitsion qarorlarni kutilayotgan daromad va kapitaldan foydalanish qiymati bilan bog‘lagan [1]. U. Sharp investitsion qarorlarni risk va daromad o‘rtasidagi munosabat asosida qabul qilish zarurligini ta’kidlagan [2]. Uning yondashuvlari korxona investitsion portfelini

shakllantirishda risklarni diversifikatsiya qilish mexanizmlarini qo‘llash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. P. Druker korxonalarni boshqarishda resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalar va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv qarorlarining ahamiyatini alohida ta’kidlagan [3]. Zamonaviy tadqiqotlarda investitsion boshqaruv raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va investitsion risklarni prognozlash texnologiyalari bilan tobora ko‘proq bog‘lanmoqda.

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham tarmoqning investitsion salohiyati, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, eksportni kengaytirish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish masalalariga e’tibor qaratilgan [8]. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda to‘qimachilik korxonalari investitsion faoliyatini boshqarishning moliyaviy, tashkiliy, institutsional, texnologik va raqamli elementlarini yagona integratsiyalashgan mexanizm asosida boshqarish masalasi yetarlicha kompleks o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur maqolada investitsion boshqaruvning kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, ekspert baholash, investitsion loyihalarni baholash, risklarni tahlil qilish va strategik boshqaruv usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlari, investitsiya sohasiga oid rasmiy materiallar, to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishga oid ma’lumotlar hamda ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Investitsion loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholashda sof joriy qiymat (NPV), investitsiyalarning rentabellik indeksi (PI), ichki daromadlilik me’yori (IRR) va investitsiyalarni qoplash muddati (PP) ko‘rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Sof joriy qiymat quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$NPV = \Sigma CF_t/(1+r)^t - I_0$$

bu yerda:

CF_t – t davridagi pul oqimi;

r – diskont stavkasi;

t – vaqt davri;

I_0 – boshlang‘ich investitsiya hajmi.

Agar $NPV > 0$ bo‘lsa, loyiha iqtisodiy nuqtayi nazardan ijobiy natija berishi mumkin. Agar $NPV < 0$ bo‘lsa, loyihaning moliyaviy samaradorligi qayta ko‘rib chiqilishi talab etiladi.

Investitsion loyihalarni kompleks baholashda quyidagi integral ko‘rsatkichdan ham foydalanish mumkin:

$$II = w_1F + w_2T + w_3E + w_4R + w_5X$$

bu yerda:

II – investitsion jozibadorlik indeksi;

F – moliyaviy samaradorlik;

T – texnologik samaradorlik;

E – energiya va resurs tejamkorligi;

R – risk darajasi;

X – eksport salohiyati;

$w_1 ... w_5$ – tegishli mezonlarning salmoq koeffitsiyentlari.

Mazkur yondashuv investitsion loyihani faqat moliyaviy natija asosida emas, balki texnologik, eksport va resurs samaradorligi nuqtayi nazaridan ham baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida investitsion faollikning o‘sishi korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish uchun muhim imkoniyat yaratmoqda. 2024-yilda ishlab chiqarish sanoatida asosiy kapitalga investitsiyalar 137,1 trln so‘mga yetgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan qariyb 2,6 baravar yuqori bo‘lgan. Bu sanoat tarmoqlarida investitsion jarayonlar ko‘lami kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval.

O‘zbekiston ishlab chiqarish sanoatida asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi

Yil	Investitsiyalar, trln so‘m	O‘sish tendensiyasi
2021	52,4	Bazaviy
2022	67,8	O‘sish
2023	95,8	Yuqori o‘sish
2024	137,1	Jadal o‘sish
2025	163,1	O‘sish davom etgan

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Biroq investitsiya hajmining oshishi avtomatik ravishda investitsion faoliyat samaradorligining oshishini anglatmaydi. Shu sababli korxona darajasida investitsiyalarni boshqarishning samarali mexanizmini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida to‘qimachilik korxonalarining investitsion faoliyatini boshqarish mexanizmini beshta asosiy blokka ajratishni taklif qilaniz. Bu investitsion faoliyatini boshqarish mexanizmlariga quyidagalar kiradi:



1-rasm. To‘qimachilik korxonalarining investitsion faoliyatini boshqarish mexanizmining bloklari.

Moliyaviy mexanizmni takomillashtirish. To‘qimachilik korxonalari investitsion faoliyatini boshqarishda moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish muhim hisoblanadi. Bunda korxonaning o‘z mablag‘lari, bank kreditlari, xorijiy investitsiyalar, lizing, korporativ

obligatsiyalar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash instrumentlaridan foydalanish mumkin. Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi investitsion risklarni pasaytiradi va korxonaning kapital qiymatini optimallashtirish imkonini beradi.

Investitsion loyihalarni saralash tizimi. Korxonalarda investitsion loyihalarni tanlash jarayonida faqat loyiha qiymatiga emas, balki uning qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatiga e’tibor qaratish lozim.

Loyihalarni saralashda quyidagi mezonlardan foydalanish taklif etiladi:

2-jadval.

Investitsion loyihalarni baholash mezonlari

Mezon	**Ulushi**
NPV va IRR	25%
Eksport salohiyati	20%
Mehnat unumdorligi o‘sishi	15%
Energiya tejamkorligi	15%
Texnologik yangilik darajasi	10%
Investitsion risk	10%
Ekologik samara	5%
Jami	100%

Bunday yondashuv korxonada investitsiyalarni ustuvor loyihalarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Investitsion risklarni boshqarish. To‘qimachilik sanoati korxonalarining investitsion faoliyatida valyuta kursi, xom ashyo narxi, energiya xarajatlari, logistika, tashqi bozor kon’yunkturasi va mahsulotga bo‘lgan talab o‘zgarishi bilan bog‘liq risklar mavjud. Shu sababli har bir investitsion loyiha bo‘yicha risklar reyestri shakllantirilishi va ular ehtimollik hamda ta’sir darajasi bo‘yicha baholanishi lozim.

Risklarni baholashning sodda modeli quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$R = P \times I$

bu yerda:

P – riskning yuzaga kelish ehtimoli;

I – riskning loyiha natijasiga ta’siri.

Natijada yuqori riskli loyihalar bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlar, sug‘urta mexanizmlari, valyuta xedjirlash va moliyaviy zaxiralardan foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Texnologik va innovatsion mexanizm. To‘qimachilik korxonalari investitsion strategiyasida zamonaviy texnologik liniyalarga investitsiya kiritish muhim yo‘nalish hisoblanadi. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan to‘quv va bo‘yash liniyalari, raqamli sifat nazorati, robotlashtirilgan omborlar, energiya tejamkor uskunalar va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli monitoring qilish tizimlari investitsiyalarning uzoq muddatli samaradorligini oshirishi mumkin. Investitsiyalar paxta tolasini dastlabki qayta ishlash bilan cheklanib qolmasdan, tayyor mato, trikotaj, kiyim-kechak va boshqa yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilishi zarur. O‘zbekistonning investitsiya bo‘yicha rasmiy qo‘llanmasida ham to‘qimachilik sanoatida qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlar ulushini oshirish strategik yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan.

Raqamli investitsion monitoring. Tadqiqot natijasida to‘qimachilik korxonalarida investitsion loyihalarni boshqarishning raqamli monitoring platformasini joriy etish taklif etiladi.

Ushbu tizimda quyidagi ko‘rsatkichlar real vaqt rejimida nazorat qilinishi mumkin:

- investitsiyalarni o‘zlashtirish darajasi;
- loyiha budjetining bajarilishi;
- kapital xarajatlar dinamikasi;
- ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish;
- mahsulot tannarxi;
- energiya sarfi;
- mehnat unumdorligi;
- eksport hajmi;
- investitsiyalarning qoplanish muddati;
- NPV va IRR ko‘rsatkichlari;
- investitsion risklar darajasi.

Shu asosda korxona rahbariyati investitsion loyihaning rejadan og‘ishini erta aniqlab, boshqaruv qarorlarini operativ ravishda qabul qilishi mumkin.

Takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm. Tadqiqot asosida to‘qimachilik korxonalari investitsion faoliyatini boshqarishning quyidagi integratsiyalashgan mexanizmi taklif etiladi:

Investitsion maqsadlarni belgilash → investitsion loyihalar portfelini shakllantirish → kompleks baholash → moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish → risklarni boshqarish → loyihani amalga oshirish → raqamli monitoring → KPI asosida baholash → investitsiyadan keyingi audit.

3-jadval.

To‘qimachilik korxonalari investitsion faoliyatini boshqarishning takomillashtirilgan mexanizmi

Bosqich	Asosiy vazifa	Asosiy instrument
1	Investitsion strategiya	SWOT, strategik tahlil
2	Loyihalarni shakllantirish	Biznes-reja, investitsion portfel
3	Loyihani baholash	NPV, IRR, PI, PP
4	Moliyalashtirish	Kredit, investitsiya, lizing, o‘z mablag‘i
5	Risklarni baholash	Risk matrix, ssenariy tahlili
6	Amalga oshirish	Project management
7	Monitoring	Dashboard, KPI
8	Natijadorlik	ROI, mehnat unumdorligi, eksport
9	Postinvestitsion audit	Fakt-reja tahlili

Ushbu mexanizmning muhim xususiyati shundaki, investitsiyalarni boshqarish jarayoni bir martalik qaror sifatida emas, balki “rejalashtirish – amalga oshirish – monitoring – baholash – qayta qaror qabul qilish” sikli asosida tashkil etiladi.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari. To‘qimachilik korxonalari investitsion faoliyatini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi: Birinchidan, investitsiyalarni xom ashyoni qayta ishlashdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish bosqichiga yo‘naltirish. Ikkinchidan, energiya va resurs tejamkor texnologiyalarga investitsiya kiritish. Uchinchidan, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan investitsion loyihalar ulushini oshirish. To‘rtinchidan, xorijiy investorlar bilan qo‘shma loyihalarni ko‘paytirish.

Beshinchidan, investitsion loyihalarni tanlashda NPV, IRR, PI kabi moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan birga eksport, innovatsiya, mehnat unumdorligi va ekologik samara ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish. Oltinchidan, investitsion faoliyat monitoringida raqamli platformalar va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish. Yettinchidan, korxonada investitsion loyihalar portfelini boshqarish uchun alohida mas’ul bo‘linma yoki investitsion loyihalar ofisini tashkil etish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari to‘qimachilik sanoati korxonalari investitsion faoliyatini samarali boshqarish investitsiya hajmini ko‘paytirish bilan bir qatorda, investitsiyalarning iqtisodiy natijadorligini ta’minlashga qaratilgan kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni shakllantirishni talab qilishini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmining o‘sishi korxonalarni texnologik modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun muhim imkoniyat yaratmoqda. Biroq investitsion resurslardan samarali foydalanish uchun loyihalarni saralash, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, investitsion risklarni boshqarish va investitsiyadan keyingi natijalarni baholash tizimini takomillashtirish zarur. Maqolada taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm moliyaviy, institutsional, texnologik, risk va raqamli boshqaruv elementlarining o‘zaro integratsiyasiga asoslanadi. Ushbu mexanizmni amaliyotga joriy etish investitsion loyihalarni tanlash sifatini oshirish, kapitaldan foydalanish samaradorligini yaxshilash, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, investitsion faoliyatni boshqarishda KPI tizimidan foydalanish korxona rahbariyatiga investitsiyalarning faqat moliyaviy qaytimini emas, balki ishlab chiqarish, texnologik, eksport va resurs samaradorligini ham kompleks baholash imkonini beradi. Umuman olganda, to‘qimachilik korxonalarining investitsion strategiyasi “ko‘proq investitsiya jalb qilish” tamoyilidan “samarali investitsiya portfelini shakllantirish va investitsiyadan yuqori qo‘shilgan qiymat olish” tamoyiliga o‘tishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Blank I.A. Investitsionnyy menedzhment. – Kiyev: Nika-Tsentr, 2001.
2. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. – Mason: South-Western Cengage Learning, 2014.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi. – Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Sanoatdagi investitsiyalarning asosiy qismi to‘qimachilikka yo‘naltirilgan. – Toshkent, 2025.
5. Invest Uzbekistan. To‘qimachilik sanoati: asosiy ko‘rsatkichlar va investitsion imkoniyatlar. – Toshkent, 2025.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Investitsiya sohasidagi rejalar bo‘yicha axborot. – Toshkent, 2024.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. To‘qimachilik sanoatining joriy natijalari va kelgusidagi ustuvor vazifalar. – Toshkent, 2025.
8. Uzbekistan Investment Guide 2025. Textile Industry. – Investment Promotion Agency of Uzbekistan, 2025.

9. Dadaboyeva M. KPI-Linked Investment Mechanism for Textile Firms in Uzbekistan: 2023–2025 Evidence // Next Scientists Journal of Management and Economics. – 2026. – DOI: 10.55640/jme-06-04-13.
10. To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish // Международный журнал теории новейших научных исследований. – 2024. – №10. – B. 137–147.
11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Tog‘-kon va ishlab chiqarish sanoati bo‘yicha investitsiyalar hajmi. – Toshkent, 2025.
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya va moliyaviy bozorlar bo‘yicha statistik ma’lumotlar. – Toshkent.